Bobojonov To'liqinbek Maxmud o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALAR UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV VA INVESTITSIYA MONITORINGINING MUALLIFLIK MODELİ	1020
Abdiyev Alimardon Chorshanbiyevich, Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BUXGALTERIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	1025
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna, Jo'rayev Asadbek Anvarjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSİYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA SIRKULAR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1246
Utegenov Ilham Baxtiyarovich	
GO'SHT YETISHTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA).....	1250
Otabekov Javdod Nurulla o'g'li	



O'ZBEKISTONDA TASHQI AUDIT TIZIMINING RIVOJLANISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	1256
Ibayev Xo'jabek, Ergashev Olloyor Furqat o'g'li	
SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF THE DEVELOPMENT OF SEPARATE SEGMENTS	1261
OF REGIONAL BUSINESS TOURISM	
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilkhomovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI	1267
Tabayev Azamat Zaripbayevich	



QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING XUSUSIYATLARI

Tabayev Azamat Zaripbayevich

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti,

"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası dotsenti, PhD

ORCID: 0000-0003-0014-3549

azamattabaev123@tiame.uz

Annotatsiya. ushbu maqolada qishloq xo'jaligida "yashil" transformatsiyaning mohiyati, asosiy yo'nalishlari va uning global hamda milliy darajadagi dolzarbligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida iqlim o'zgarishi, yer resurslarining degradatsiyasi, suv tanqisligi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishda yashil transformatsiyaning ahamiyati asoslab berilgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi global issiqxona gazlari emissiyasining sezilarli qismini tashkil etib, mavjud resurslardan samarasiz foydalanish ekologik muammolarni yanada kuchaytirmoqda. Shu bois, resurs tejankor texnologiyalar, raqamli qishloq xo'jaligi (precision agriculture), qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda. Maqolada xorijiy tajribalar tahlili asosida "yashil" transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligi, ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi roli va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston sharoitida yerlarning sho'rlanishi, suv resurslari tanqisligi va agrar sektorning modernizatsiya ehtiyoji nuqtai nazaridan "yashil" transformatsiyani jadallashtirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil transformatsiya qishloq xo'jaligida raqobatbardoshlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: "yashil" transformatsiya, qishloq xo'jaligi, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, resurs tejankorlik, ekologik barqarorlik, yer degradatsiyasi, suv resurslari boshqaruvi, raqamli qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, "yashil" iqtisodiyot.

Abstract. this article analyzes the essence, main directions of the "green" transformation in agriculture, and its relevance at the global and national levels. The study substantiates the importance of green transformation in addressing problems related to climate change, land resource degradation, water scarcity, and food security. According to statistics, agriculture accounts for a significant part of global greenhouse gas emissions, and inefficient use of available resources is further exacerbating environmental problems. Therefore, the need to introduce resource-saving technologies, digital agriculture (precision agriculture), the use of renewable energy sources, and environmentally friendly production systems is increasing. The article, based on an analysis of foreign experience, highlights the economic efficiency of the "green" transformation, its role in ensuring environmental sustainability, and its social significance. It also justifies the need to accelerate "green" transformation in the conditions of Uzbekistan, given the salinization of land, the scarcity of water resources, and the need to modernize the agricultural sector. According to the research results, green transformation is an important factor in increasing competitiveness in agriculture, expanding export potential, and ensuring sustainable development.

Key words: "green" transformation, agriculture, sustainable development, climate change, resource efficiency, environmental sustainability, land degradation, water resources management, digital agriculture, food security, "green" economy.

Аннотация. В данной статье анализируются сущность, основные направления «зеленой» трансформации в сельском хозяйстве и ее актуальность на глобальном и национальном уровнях. Исследование обосновывает важность «зеленой» трансформации в решении проблем, связанных с изменением климата, деградацией земельных ресурсов, нехваткой воды и продовольственной безопасностью. Согласно статистическим данным, сельское хозяйство составляет значительную часть глобальных выбросов парниковых газов, а неэффективное использование имеющихся ресурсов еще больше усугубляет экологические проблемы. Поэтому возрастает необходимость внедрения ресурсосберегающих технологий, цифрового сельского хозяйства (точного земледелия), использования возобновляемых источников энергии и экологически чистых систем производства. В статье, на основе анализа зарубежного опыта, подчеркивается экономическая эффективность «зеленой» трансформации, ее роль в обеспечении экологической устойчивости и ее социальное значение. Также обосновывается необходимость ускорения «зеленой» трансформации в условиях Узбекистана ввиду засоления земель, нехватки водных ресурсов и необходимости модернизации сельскохозяйственного сектора. По результатам исследования, «зеленая» трансформация является важным фактором повышения конкурентоспособности в сельском хозяйстве, расширения экспортного потенциала и обеспечения устойчивого развития.

Ключевые слова: «зеленая» трансформация, сельское хозяйство, устойчивое развитие, изменение климата, ресурсоэффективность, экологическая устойчивость, деградация земель, управление водными ресурсами, цифровое сельское хозяйство, продовольственная безопасность, «зеленая» экономика.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda ekologik muammolarning keskinlashuvi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Iqlim o'zgarishi, yer degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi hamda aholi sonining ortib borishi agrar soha ishlab chiqarishiga bo'lgan bosimni kuchaytirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi global issiqxona gazlari emissiyasining 10 – 12 % ini tashkil etadi, bu esa ekologik xavflarni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biridir.

Qishloq xo'jaligi global miqyosda iqlim o'zgarishining ham sababchisi, ham qurboni sifatida ikki tomonlama murakkab o'rinda turibdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, oziq-ovqat tizimlari global issiqxona gazlari chiqindilarining 21-37 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, aynan qishloq xo'jaligi iqlim o'zgarishi oqibatlariga eng zaif tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda [1]. Ushbu ziddiyatli vaziyat qishloq xo'jaligini "yashil" transformatsiya qilishni nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham dolzarb masalaga aylantirmoqda.

"Yashil" transformatsiya deganda qishloq xo'jaligi faoliyatini ekologik barqarorlik, iqlimga chidamlilik va resurslardan samarali foydalanish tamoyillari asosida qayta qurish tushuniladi. Bu jarayon an'anaviy intensiv dehqonchilikdan agroekologiya tamoyillariga asoslangan, tabiat bilan uyg'unlashgan ishlab chiqarish tizimiga o'tishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, "yashil" transformatsiya konsepsiyasi qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishni ta'minlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda.

Global miqyosda qishloq xo'jaligining "yashil" transformatsiyasining dolzarbligini quyidagi omillar orqali izohlashimiz mumkin: birinchidan, qishloq xo'jaligi sayyoraviy chegaralarning oltitasi buzilishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi 15 yil ichida insoniyat Yerning o'zini o'zi tartibga solish qobiliyatiga tahdid soluvchi to'qqizta sayyoraviy chegaradan oltitasini kesib o'tdi. Qishloq xo'jaligi bu jarayonda o'rmonlarning 80% yo'qolishiga, biologik xilma-xillikning asosiy qismini yo'qotishiga sabab bo'lmoqda [2]; ikkinchidan, global oziq-ovqat tizimlari o'zining barqarorsizligi bilan ajralib turmoqda. Hozirgi qishloq xo'jaligi amaliyotlari tuproq degradatsiyasi, suv resurslarining kamayishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib kelmoqda. FAO hisob-kitoblariga ko'ra, hozirgi tendensiyalar saqlanib qolsa, 2050-yilga kelib qishloq xo'jaligi erlarining 90 foizi degradatsiyaga uchrashi mumkin [1]; uchinchidan, qishloq xo'jaligi xodimlari va kichik fermer xo'jaliklari iqlim o'zgarishi oqibatlariga eng zaif guruh hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi sabab hosildorlikning pasayishi, ekstremal ob-havo hodisalari va suv resurslarining qisqarishi bevosita ushbu guruhlarining farovonligiga tahdid solmoqda [3].

Respublikamizda ham keyingi yillarda qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoniga muvofiq, qishloq xo'jaligida transformatsiya jarayonini jadal amalga oshirish yo'nalishlari belgilab berildi, jumladan, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish natijasida atrof-muhit va iqlim uchun yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni kamaytirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi va qishloq hududlarining barqaror rivojlanishi uchun tabiiy resurslarni samarali boshqarish asosiy ustuvor yo'nalish qilib belgilandi [4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil" iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining rivojlanishi bugungi kunda jahon va milliy miqyosdagi eng dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bu borada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar, ayniqsa ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Mahalliy iqtisodchilardan Bobojonova M. (2024) o'z tadqiqotlarida O'zbekiston sharoitida "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga joriy etish orqali qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash imkoniyatlarini tahlil qilgan. U ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, investitsion faollikni oshirishning iqtisodiy afzalliklarini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, resurs tejamkor yondashuvlar nafaqat ekologik, balki iqtisodiy samaradorlikni ham ta'minlaydi [5]. Shunga yaqin yondashuvni Qurbanova D. (2025) o'z ilmiy izlanishlarida ilgari surib, O'zbekiston don korxonalari misolida qishloq xo'jaligida innovatsion strategiyalar va texnologik modernizatsiyaning "yashil" iqtisodiyot tamoyillariga mosligini o'rganadi. Muallifning fikricha, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli yechimlar asosida ishlab chiqilgan ishlab chiqarish tizimlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi [6]. Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlarda ham bu tendensiya o'z aksini topgan, jumladan, Triana U. va Ade F. (2024) tomonidan o'tkazilgan



tadqiqotlarda “yashil” iqtisodiyot va barqaror qishloq xo‘jaligi o‘rtasidagi sinergiya “Oziq-ovqat xavfsizligi (SDG 2)” va “Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash (SDG 13)” maqsadlari bilan bevosita bog‘liq ekanini ta’kidlanadi. Ularning ishlari qishloq xo‘jaligida ekologik mas’uliyatli boshqaruv tizimlarini shakllantirishning global zarurligini ilmiy asoslab beradi [7]. Chen X. va Ryoo J. (2025) O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligidagi transformatsiyaning mumkin bo‘lgan yechimlaridan biri sifatida “heliks modeli” innovatsion ekotizimi (universitet - sanoat – hukumat - jamiyat hamkorligi) samaradorligini tahlil qilgan. Ularning fikricha, “yashil” sanoat inqilobi O‘zbekistonga qayta tiklanadigan resurslar, eko-sanoat parklari va energiya tejaydigan issiqxonalarni rivojlantirish asosida raqobat ustunligi, bozorga yo‘naltirilgan bo‘lish va qishloq xo‘jaligidagi qiyosiy afzalliklarini maksimal darajada oshirishga imkon beradi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida zamonaviy iqtisodiy tahlil va siyosiy-ijtimoiy baholashda keng qo‘llaniladigan ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. “Yashil” transformatsiya siyosatini shakllantirish, uni xalqaro amaliyot asosida tahlil qilish va milliy rivojlanish sharoitlariga moslashtirishda deduksiya va induksiya metodlari alohida ahamiyat kasb etdi. Jumladan, umumiy nazariy yondashuvlardan O‘zbekiston sharoitiga xos xulosalar chiqarishda deduktiv usul qo‘llanilgan bo‘lsa, xalqaro amaliyot asosida umumlashtirilgan qarashlarni shakllantirishda induktiv usuldan foydalanildi. Shuningdek, abstrakt-mantiqiy fikrlash va ilmiy abstraksiya metodlari orqali “yashil” transformatsiyaning mohiyati, tamoyillari va asosiy vositalari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda insoniyat duch kelayotgan eng dolzarb global muammolardan biri atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi va iqlim o‘zgarishidir. Ushbu jarayonlar qishloq xo‘jaligi sohasiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, an’anaviy dehqonchilik tizimlarining intensiv va noekologik xususiyati ushbu muammolarni yanada kuchaytirmoqda. Shu bois xalqaro hamjamiyat barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida qishloq xo‘jaligida “yashil” texnologiyalardan foydalanishni jadallashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Mazkur texnologiyalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ekologik barqaror, resurs tejovchi va inson salomatligi uchun xavfsiz shaklda olib borishni nazarda tutadi. “Yashil” texnologiyalar deganda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilar hajmini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda ekologik toza mahsulot yetishtirishga qaratilgan innovatsion usullar tushuniladi (1-jadval).

Xususan, tomchilatib sug‘orish tizimlari, bioo‘g‘itlardan foydalanish, pestitsidsiz yetishtirilgan ekologik mahsulotlar ushbu yo‘nalishning asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham qishloq xo‘jaligida “yashil” texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimizning tegishli qaror va farmonlariga muvofiq sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, ekologik toza texnologiyalarni ommalashtirish va barqaror qishloq xo‘jaligi tizimini shakllantirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Jumladan, “2020-2030-yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi”da ekologik xavfsiz va barqaror agrotexnik amaliyotlarni keng joriy etish, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish hamda kimyoviy o‘g‘itlar o‘rniga bioo‘g‘itlardan foydalanishni kuchaytirish maqsad qilingan (1-jadval)[4].

1-jadval. Qishloq xo‘jaligida “yashil” transformatsiya jarayoni ko‘rsatkichlari

t/r	Ko‘rsatkichlar nomi	2015	2020	2024	O‘sish tendensiyasi (%)
1.	Tomchilatib sug‘orish maydoni (ming ga)	25	120	250+	~10 barobar
2.	Qishloq xo‘jaligi YaIM ulushi (%)	32	28	27	(strukturaviy o‘zgarish)
3.	Suv tejovchi texnologiyalar ulushi (%)	5	18	35	sezilarli
4.	Mineral o‘g‘itlar sarfi (kg/ga)	220	200	180	ekologik ijobiy
5.	Organik dehqonchilik maydoni (ming ga)	5	15	35	kengaymoqda
6.	Qishloq xo‘jaligi eksporti (mlrd \$)	5,3	6,8	9,5	barqaror
7.	Agroklastlar soni	50	120	200+	tez o‘sish
8.	Qishloq xo‘jaligida bandlik (%)	27	26	25	samaradorlik oshishi

Manba: Food and Agriculture Organization (FAOSTAT), World Bank (WDI), International Energy Agency, European Commission hamda O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Ayni paytda suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan sharoitda tomchilatib sug'orish texnologiyasi O'zbekistonda muhim muqobil yechimlardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu texnologiya orqali suv sarfini 40-60 foizgacha kamaytirish, hosildorlikni esa 20-30 foizga oshirish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, mineral o'g'itlar o'rniga bioo'g'itlardan foydalanish yer unumdorligini uzoq muddat davomida saqlashga, agroekotizim barqarorligini oshirishga va mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bioo'g'itlar asosida yetishtirilgan mahsulotlar nafaqat ichki bozor, balki eksport bozori uchun ham raqobatbardosh hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston qishloq xo'jaligida "yashil" transformatsiyaning asosiy xususiyatlari va strategik yo'nalishlarini quyidagilarga ajratish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- birinchidan, O'zbekiston qishloq xo'jaligida "yashil" transformatsiya aniq ijobiy dinamikaga ega. Yuqoridagi jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ayniqsa tomchilatib sug'orish maydonlarining qariyb 10 barobar oshgani resurslardan samarali foydalanishga o'tish boshlanganini bildiradi. Bu - suv tanqisligi sharoitida strategik yutuq hisoblanadi;

- ikkinchidan, resurs tejamkorlik va ekologik yuklamaning kamayishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Mineral o'g'itlar sarfining kamayishi va organik dehqonchilik maydonlarining kengayishi tuproq degradatsiyasining sekinlashishiga xizmat qiladi. Bu jarayon uzoq muddatda yer unumdorligini saqlab qolishning asosiy omilidir;

- uchinchidan, qishloq xo'jaligining YaIM dagi ulushining pasayishi salbiy holat emas, balki iqtisodiyotning strukturaviy diversifikatsiyasi belgisi hisoblanadi. Bu ishlab chiqarish samaradorligi ortib borayotganini va boshqa tarmoqlar rivojlanayotganini anglatadi;

- to'rtinchidan, agroklastlar sonining oshishi va eksport hajmining o'sishi "yashil" transformatsiyaning bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi. Bu esa mahsulotlar raqobatbardoshligini oshiradi;

- beshinchidan, bandlik ulushining biroz kamayishi mehnat unumdorligi oshayotganidan dalolat beradi. Ammo bu holat ijtimoiy moslashuv siyosatini ham talab qiladi.

Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish esa sog'lom ovqatlanishni ta'minlash bilan bir qatorda sog'lom jamiyatni shakllantirishning muhim omillaridan biridir. Bugungi kunda iste'molchilar mahsulotning nafaqat narxi va tashqi ko'rinishiga, balki uning ekologik xavfsizligiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Shu sababli "yashil" texnologiyalar qishloq xo'jaligini transformatsiya qilish, iqlim o'zgarishiga moslashish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda jahon bozorida organik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab yil sayin ortib bormoqda. Bu holat O'zbekistonning mazkur sohada raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro savdo maydonida o'z o'rnini mustahkamlash uchun muhim imkoniyat yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda qishloq xo'jaligini "yashil" transformatsiya qilish zarurati global ekologik muammolar, resurslar tanqisligi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ehtiyoji bilan bevosita bog'liqdir. Iqlim o'zgarishi, yer va suv resurslarining degradatsiyasi hamda biologik xilma-xillikning qisqarishi agrar sohada an'anaviy ishlab chiqarish modelining barqaror emasligini yaqqol namoyon etmoqda. Shu bois qishloq xo'jaligini ekologik barqaror, resurs tejovchi va iqlimga moslashuvchan tizim asosida rivojlantirish bugungi kunning ustuvor vazifasiga aylanmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, "yashil" transformatsiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab tizim bo'lib, u iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Mazkur jarayonni samarali amalga oshirish uchun resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish hamda fermer xo'jaliklarini moliyaviy va texnologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jaligida "yashil" transformatsiyani jadallashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olishi lozim:

- suv va yer resurslarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish;
- bioo'g'itlar va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish;
- "yashil" moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish;
- raqamli agrotexnologiyalarni qo'llash hamda organik mahsulotlar eksport salohiyatini oshirish.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida "yashil" transformatsiya nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish vositasi, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq hududlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish hisoblanadi. Mazkur jarayonni izchil davom ettirish orqali O'zbekiston global "yashil" iqtisodiyot tizimida o'zining mustahkam o'rnini egallash imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Transforming food and agriculture through a systems approach. <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/34803993-89ca-48bc-8236-e63a61205bfc/content>
2. Pierre Ferrand, Alvaro Espinoza Rodriguez, Estelle Biénabe. Advancing Agroecology through Policy Dialogue and Advocacy: Learning from Three FAO Supported Initiatives. https://www.jstage.jst.go.jp/article/arfe/61/1/61_42/_html/-char/en
3. Rebecca Williams. Looking to Livestock: Gauging the Evolution of the EU's Agri-Climate Law and Policy. <https://www.cambridge.org/core/journals/transnational-environmental-law/article/looking-to-livestock-gauging-the-evolution-of-the-eus-agriculture-law-and-policy/856D0ADF46D2656873044B31B9BE3F6D>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4567334>
5. Bobojonova M.J. O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga asoslangan qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish (2024). americanjournal.org
6. Qurbanova D. (2025). O'zbekiston g'alla korxonalarini kuchaytirish: barqaror o'sish va operatsion samaradorlik uchun innovatsion strategiyalar
7. Triana Umaira, Ade Fajrian. Sustainable Agriculture and Green Economy: A Synergy for SDG 2 and SDG 13. <https://journal.civiltary.com/index.php/civiltary/article/view/22>
8. Chen, X., & Ryoo, J. (2025). Sustainable Agricultural Innovation in Uzbekistan Through the Helix Models. Asian Business Research Journal, 10(1), 1–10. <https://ecsenet.com/index.php/2576-6759/article/view/243>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>